

XALQ MAQOLLARIDAGI ETNIK TEXNOLOGIYALARING ONA TILI DARSLARIDA IFODALANISHI

Yuldasheva Nigina Usmonovna

Osiyo Xalqaro Universiteti Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang‘ich ta’lim) mutaxassisligi 1-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada xalq maqollari mazmun-mohiyatida aks etgan etnik texnologiyalarning boshlang‘ich sinf ona tili darslarida ifodalanishi va buning foydali ahamiyati haqida bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: xalq maqollari, etnografiya, texnologiya, etnik kelib chiqish, boshlang‘ich sinf, metod, dars.

АННОТАЦИЯ

В данной статье описывается выражение этнических технологий, отраженных в содержании народных пословиц на уроках родного языка в начальных классах, и его благотворное значение.

Ключевые слова: народные пословицы, этнография, технология, этнос, начальный класс, метод, урок.

ABSTRACT

This article describes the expression of ethnic technologies reflected in the essence of folk proverbs in the primary-grade mother tongue classes and its beneficial value.

Key words: folk proverbs, ethnography, technology, ethnicity, primary class, method, lesson.

KIRISH

Xalqimiz boy ma’naviy merosining ajralmas bir bo‘lagi sifatida yashab kelayotgan maqol, matal va iboralarni o‘rganish, ularda aks etgan xalq hayotini, insoniy tuyg‘ular tasvirini ko‘rsatish har doim dolzarblik kasb etib kelgan. Bizga ma’lumki, xalq og‘zaki ijodi o‘z ichiga dostonlarni, afsonalarni, maqollar va matallarni oladi. O‘zbek millatini ma’naviy qiyofasini, o‘zligini ko‘rsatib beradigan xalq og‘zaki ijodining namunasi maqollar ayniqsa muhim ahamiyatga egadir. Maqollarni o‘rganish va o‘rgatish yoshlarimiz ma’naviyatida o‘z millatiga nisbatan hurmatni, qalbida faxr tushunchasini beradi. Xalqimiz turmush tarzi ifodalangan manbalardan biri sifatida

xalq og‘zaki ijodi, deb qarashimiz mumkin. Maqollar esa xalq og‘zaki ijodining yirik namunasidir. Maqollarni o‘rganishimiz o‘z tilimizga nisbatan hurmatni, uni yoshlarimiz ongiga singdirib ularda qadriyatlarimizga nisbatan faxr tuyg‘usini rivojlantirishga katta yordam beradi.

Ma’lumki, tarbiya ko‘proq ta’lim jarayonida berib boriladi. Bolalarga maktabga kelgan kunidan boshlab, bilim olishga havas tuyg‘usi shakllantiriladi. Ularda astasekin bilim olishga ehtiyoj paydo bo‘ladi va bu orqali o‘quvchilar ma’naviy ozuqa ola boshlaydilar. Bu bilan bolada kelajakka intilish, orzu-havas, mehnatga chanqoqlik, xayr-u ehsonda sofdillik, ona-Vatanga mehr-muhabbat, fidoyilik, milliy g‘urur, matonat, mehr-oqibat, do‘stlik, ezgulik kabi yuksak hislar paydo bo‘ladi. Albatta, bu jarayonda xalq maqollarining o‘rni beqiyosdir. Jumladan, maqol janridagi asarlar ham boladagi qo‘pollik, qo‘rslik, yolg‘onchilik, yalqovlik, beparvolik kabi illatlarni bartaraf etishda yordam beradi.

Xalq maqollari asrlar davomida sayqal topib, mumtoz qiyofa va mazmun kasb etgan, nutqda faol ishtirok etuvchi paremik birlik sifatida xalq qadriyatlari, urf-odat va an’analari, tarix va madaniyat, etnik kelib chiqish, etnomadaniy kasb-hunar ,ta’lim va tarbiya, odob-axloq masalalari talqini va tavsifini, umuman, millat mentalitetini to‘la namoyon etuvchi ko‘p qirrali hodisadir.

ASOSIY QISM

Boshlang‘ich ta’lim, umumiyl o‘rta ta’lim uchun asos, tayanch vazifasini o‘taydi. Boshlang‘ich sinfda o‘zlashtiriladigan barcha materiallar bosqichma-bosqich takomillashib va murakkablashib boradi. Bu davr uchun mo‘ljallab kiritilgan manbalar har tomonlama puxta o‘ylangan, kichik yoshdagil o‘quvchilarining psixologik, fiziologik, pedagogik va boshqa jihatlarini qamrab olishi lozim. Eng foydali, ahamiyati yuqori milliy-etnik o‘zlikni ko‘rsatib turuvchi manbalardan biri sifatida albatta, xalq og‘zaki ijodining nodir durdonalari sanalgan maqollarni keltirish mumkin.

Maqol — xalq og‘zaki ijodi janri; qisqa va lo‘nda, obrazsiz, grammatick va mantiqiy tugallangan ma’noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli. Muayyan aniq shaklga ega. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg‘ulari, ijobjiy fazilatlari mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan. Maqollar mavzu jihatdan nihoyatda boy va xilma-xil. Vatan, mehnat, ilm-hunar, do‘stlik, ahillik, donolik, hushyorlik, til va nutq madaniyati, sevgi va muhabbat kabi mavzularda, shuningdek, salbiy hislatlar xususida rangbarang maqollar yaratilgan. Maqol uchun mazmun va shaklning dialektik birligi, ko‘p hollarda qofiyadoshlik, ba’zan ko‘p ma’nolilik, majoziy ma’nolarga boylik kabi xususiyatlar harakterli. Turkiy xalqlarning maqollaridan namunalar dastlab maqol Koshg‘ariyning "Devonu lug‘otit turk" asarida keltirilgan. Bu maqollarning bir qanchasi hozir ham o‘zbek xalqi orasida turli

variantlarda ishlataladi. Maqollarning ijtimoiy-siyosiy va tarbiyaviy ahamiyati g‘oyat katta.

Ma’lumki xalqimiz azaldan dehqonchilik chorvachilik bog‘dorchili bilan shug‘ullanib kelgan . Quyida misol sifatida keltirilga xalq maqollarida xalqning etnik kelib chiqishi , etnomadaniy xususiyatlari kasb-kori va bular bilan bog‘liq etnik texnologiyalar aks etgan. Masalan: **Arpa yotsa, ombor sol.** Bu maqol dehqonchilik bilan bog‘liq bo‘lib, xalqning tajribalari asosidagi xulosa hukmini ko‘rsatadi. Arpa o‘simligi qachon to‘liq pishib yetsa egilib qoladi va uni o‘rib olish lozim bo‘lganligi sababli maqol davomida ombor (donli mahsulotlar, ro‘zg‘orda ishlatalinadigan jamiyki narsalarni saqlash uchun joy) solish aytildi, bu qisqa maqoldan arpa o‘simligini yig‘ib terib olish texnikalari aytib o‘tilgan: 1. Arpa pishib yetilganlik belgisi, 2. Arpa yotib qolsa (yerga egilib qolsa) uni o‘rib , yig‘ib olish kerakligi, 3. Yig‘ib olingan arpani omborda saqlash lozimligi.

Arpaga —o‘rim, Bug‘doyga — ko‘rim. Ma’lumki, arpa bug‘doy o‘simligidan ancha avval pishib yetiladi va unin o‘rib olish kerak , xuddi shu vaqtida bug‘doy hali pishib yetilmagan xom bo‘ladi , bu vaqtida bug‘doyni o‘rish katta ziyondir shuning uchun ham dono xalqimiz bu jarayonlarni bug‘doyga ko‘rim deb qisqa , lo‘nda ifodalagan.

**Bug‘doy eksang, kuzda ek,
Yaxshi haydab, bo‘zga ek.
Bug‘doy olaman desang, qovun polga ek,
Paxta olaman desang — jo‘xori polga.**

Bu ikki maqolda dehqonchilik bilan bog‘liq jarayon bug‘doy hamda paxta ekish texnologiyalari aks etgan. Ya’ni, yaxshi, hosili mo‘l bug‘doy ekmoqchi bo‘lgan inson uni kuz faslda yerni yaxshi haydab(), bo‘z yerga ekishi kerakligi aytilgan . Ikkinci maqolda esa bug‘doyning hosildor bo‘lishi uchun uni bahor-yoz fasllarida qovun ekilgan yerga ekish aytildi , paxta hosildor bo‘lishi uchun esa uni jo‘xori ekilgan yerga ekish aytildi bunda biologik jihatdan bug‘doy va paxtaning o‘ziga xos xususiyatlari , qovun va jo‘xori ekilgan yerning hozirgi kunda aytildigan biokimyoviy xususiyatlari xalqning bir necha ming yillik kuzatishlari natijasi inobatga olinib qatiyy xulosaga kelingan va bu dehqonchilikdagi milliy-etnik texnologiyalardan biri sanaladi.

Yuqorida tahlillari keltirilgan xalq maqollaridan foydalangan holda ona tili darslarini tashkil etish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining so‘z boyligi, nutqiy faolligi, ziyrakligi, zukkoligi, topqirligi, chaqqonligi, izlanuvchanligini rivojlantirish bilan birgalikda o‘zi tug‘ilib o‘savotgan xalqning etnik kasb-hunari va uning texnikalari bilan tanishib o‘rganib borishida katta ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishda maqollar ustida ishlashning ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyati juda yuqori hisoblanadi. Ona tili darslarida turli mavzudagi maqollarni o‘qitish orqali o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish, milliy o‘zlikni anglatish va tarixiy etnik urf - odatlarni shakllantirib borish kabi maqsadlarni amalga oshiradi.

Negaki, bola ongiga kichik yoshidan boshlab, Vatanga muhabbat, g‘urur, milliy qadriyatlar, o‘zlikni anglashni singdirib borish lozim. Bola qalbi go‘yo yozilmagan oq qog‘oz kabitidir. Unga nimalarni yozish, qanday to‘ldirish biz kattalarga bog‘liqdir. Kattalar, o‘qituvchilar ushbu mas’uliyatni his qilishlari bilan bir qatorda, yosh bolaga ta’lim-tarbiya berishda bolaning oq qog‘oz kabi pok qalbini yaralab qo‘ymaslikka ma’suldirlar. Shunday ekan dono xalqimizning durdonalari sanalgan maqollar, ularda ifodalangan milliylik, milliy qadriyatlar etnik kasb-kor va uning texnologilari haqidagi qarashlar, bular bilan bog‘liq xalqning ko‘p yillik har tomonlama foydali xulosalari bu mas’uliyatli vazifalarni bajarishda bizga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchi vazifasini bajaradi va foydali ahamiyatini ming yillar davomida saqlab kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Ravshanova M.A. BOSHLANG‘ICH SINF DARSLIKLARIDAGI MAQOLLARNING PIRLS TADQIQOTI DARAJASIDAGI TAHLILI. Pedagogical Education Cluster: Problems and Solutions
2. Mirzayev T., Musaqulov A. «O‘zbek xalq maqollari» - T.: 2005.
3. Rabbonayeva D. PIRLS tadqiqotlari uchun topshiriqlar to‘plami. O‘quvuslubiy qo‘llanma. Samarqand XTXQTMOHM. -2019
4. Safarova R va b. Alifbe darsligi. - T.: O‘qituvchi, 2019 .
5. I.Azimova, K.Mavlonova, S.Quronov, Sh.Tursun. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 2-sinf uchun darslik 1-qism. Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021.
6. O.Madayev, T.Sobitova. Xalq og‘zaki poetik ijodi. “Sharq” nashriyoti, Toshkent – 2010.
7. www.ziyo.net.